O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”

Ro‘yxatga olindi № BD-61010100-1.24

2025-yil

TURIZM VA MEHMONDO‘STLIK INDUSTRIYASIDA MOLIYAVIY MENEJMENT

FANINING O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:	1000000	- Xizmatlar
Ta’lim sohasi:	1010000	- Xizmat ko‘rsatish sohasi
Ta’lim yo‘nalishlari:	61010100	- Turizm va mehmondo‘stlik (masofaviy)

Samarqand – 2025

Сканировано с CamScanner

Fan/modul kodi	O'quv yili	Semestr	ECTS - Kreditlar
TMIMMI1706	2026-2027	7	6
Fan/modul turi	**Ta'lim tili**		**Haftadagi dars soatlari**
Majburiy	O'zbek		5

	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
1	**Turizm va mehmondo'stlik industriyasida moliyaviy menejment**	72	108	180

2

I. Fanning mazmuni

Fanni o'qitishdan maqsad – turizm va mehmonxona bizneslarida qo'llaniladigan turli moliyaviy vositalar, tuzilmalar va strategiyalarni, turizm va mehmonxona sanoatiga xos bo'lgan asosiy moliyaviy tushunchalar va hisobot talablarini, kapital jalb qilish usullari, pulning vaqt qiymati, byudjetlashtirish, bashorat qilish va ishchi kapitalni boshqarish usullarini, ushbu sohada buxgalteriya hisobi, moliya va xarajatlarni nazorat qilish bo'yicha talabalar bilimini rivojlantirish, oziq-ovqat va ichimlik xizmatlarida naqd pul oqimi, aktivlarni boshqarish va mehnat xarajatlarini nazorat qilish bo'yicha chuqur tahlil qilish kabi vazifalarni o'rgatishdan iborat.

Fanning vazifasi - moliyaviy hisobotlar va tahlil usullarini, pulning vaqt qiymatini tushunish va amaliyotda qo'llashni, turli moliyaviy manbalarni, moliyalashtirish manbalarini topish va ulardan qanday foydalanishni, o'z bizneslari uchun samarali byudjet yaratishni, moliyaviy prognozlar va rejalashtirishning samarali usullarini qo'llashni, naqd pul oqimlari va aktivlarni tahlil qilishni, mehnat xarajatlari va resurslarni boshqarish bo'yicha samarali qarorlar qabul qilishni o'rgatishdan iborat.

II. Asosiy qism (amaliy mashg'ulot)

Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

O'qish moduli

1- mavzu. "Turizm va mehmondo'stlik industriyasida moliyaviy menejment" fanining mazmuni, maqsadi, vazifalari.

2- mavzu. Turizm va mehmondo'stlikda boshlang'ich moliyaviy hisob-kitob tushunchasi.

3- mavzu. Turizm industriyasida menejmentning rivojlanish bosqichlari.

4- mavzu. Mehmonxona biznesida moliyaviy rejalar tuzish usullari.

5- mavzu. Turistik firmalarning marketingi, moliyalashtirish rejalari va tarkibi.

6- mavzu. Turistik firmalarda pul oqimlarini boshqarish.

7- Mavzu. Aylanma mablag'larni moliyalashtirish jarayonini boshqarish.

8- Mavzu. Turistik korxonalarda va mehmonxonalarda korxona aktivlarining tarkibi va ularni boshqarish.

9- mavzu. Turizmda investitsion loyihalarning guruhlarga bo'linishi.

10- mavzu. Bozor subyektlari, turistik mahsulotlarning ulgurji va chakana savdosi, shartnoma, yo'llanma.

11- mavzu. Turistik mahsulotlarni sotish qoidalari.

12- mavzu. Turizm tashkilotlarida moliyaviy nazorat va audit.

13- mavzu. Mehmonxona sanoatida moliyaviy o'sish tushunchasi.

14- mavzu. Turizmda narx boshqaruvi tushunchasi.

15- mavzu. Kapital byudjet va investitsiya qarorlari.

16- mavzu. Turizm va mehmondo'stlikda moliyaviy hisobotlarning tahlili va talqini.

17- mavzu. Mehmondo'stlik sanoati duch kelayotgan moliyaviy qiyinchiliklar.

18- mavzu. Kichik mehmonxonalar va hostellar uchun moliyaviy strategiyalar.

19- mavzu. Ekoturizmda moliyaviy menejment: barqarorlik va daromad.

20- mavzu. Turizmda mavsumiylik va moliyaviy rejalashtirish.

21- mavzu.

22- mavzu. Turizm va mehmondo'stlikda pul oqimini boshqarish.

23- mavzu. Turistik korxonalarda investitsion strategiyalarni ishlab chiqish prinsiplari.

24- mavzu. Turistik firmalarda kreditlash tizimi va uning samaradorligi.

25- mavzu. Moliyaviy risklar iqtisodiy mohiyati va tasniflanishi.

26- mavzu. Turizmda moliyaviy risklarni neytrallashtirishning ichki mexanizmlari.

27- mavzu. Mehmonxonalarda inqirozga qarshi moliyaviy boshqaruv jarayoni.

28- mavzu. Turizm sanoatida xarajatlarni optimallashtirish va daromadlarni maksimallashtirish masalalari.

29- mavzu. Debitorlik va kreditorlik qarzlarni boshqarish.

30- mavzu. Mehmondo'stlik korxonalarida investitsion faoliyatini boshqarish.

31- mavzu. Mehmonxona sanoatida soliq menejmentini tashkil etish.

32- mavzu. Moliyaviy risklar mohiyati va ularni kamaytirish usullari.

33- mavzu. Turizm loyihalarining biznes-rejasi va moliyaviy asoslari.

34- mavzu. Turizmda moliyaviy yechimlar.

35- mavzu. O'zbekistonda turizm infratuzilmasiga investitsiyalar va ularning samaradorligi.

36- mavzu. Xalqaro turizmda valyuta kursining moliyaviy ta'siri.

III. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:

1. Turizm loyihalari uchun biznes-reja tuzish va moliyaviy asoslarni o'rganish.

Bajarilish tartibi: Turizm loyihasi uchun to'liq biznes-reja tuzing, unga moliyaviy va operatsion tafsilotlarni kiritish. Loyihaning biznes-rejasi va moliyaviy asoslarini taqdim etuvchi slaydlarda prezentatsiya tayyorlash.

Сканировано с CamScanner

	2. Turizm loyihalari uchun biznes-reja tuzish va moliyaviy asoslarni o'rganish. Bajarilish tartibi: Turizm loyihasi uchun to'liq biznes-reja tuzing, unga moliyaviy va operatsion tafsilotlarni kiritish. Loyihaning biznes-rejasi va moliyaviy asoslarini taqdim etuvchi slaydlarda prezentatsiya tayyorlash. **3. Turizmda narx boshqaruvi tushunchasini o'rganish.** Bajarish tartibi: Narx boshqaruvi asoslarini o'rganish. Turizmda narxlarni qanday boshqarish va belgilash usullari mavjudligi va turizmda narxni boshqarishda qanday strategiyalar ishlatilishini aniqlash. Narx boshqaruvining samaradorligini tahlil qiling va uning biznesga ta'sirini ko'rsatgan holda hisobot yozish va prezentatsiya tayyorlash. **4. Mehmonxona sanoatida moliyaviy o'sish tushunchasini tahlil qilish.** Bajarish tartibi: Moliyaviy o'sish tushunchasini o'rganish. Mehmonxonalarda moliyaviy o'sishning asosiy ko'rsatkichlarini tahlil qilish. Daromadlar, foyda, sarmoyalar va xarajatlarni o'rganish. Hisobot yozish va prezentatsiya tayyorlash. **5. Turistik mahsulotlarni sotish bo'yicha qoidalar va strategiyalarni ishlab chiqish.** Bajarish tartibi: Sotish qoidalarini o'rganish. Sotish strategiyalarini ishlab chiqish. Turizm mahsulotlarini sotishdagi samarali strategiyalarni tahlil qilish. Sotish qoidalarining samaradorligi haqida hisobot yozish va prezentatsiya tayyorlash. **6. Turizmda investitsion loyihalarni guruhlarga bo'lish va ularni tahlil qilish.** Bajarish tartibi: Investitsion loyihalar guruhlarini aniqlash. Loyihalarni tahlil qilish. Har bir investitsiya loyihasining xususiyatlarini o'rganish. Investitsion loyihalar uchun biznes-reja ishlab chiqish va slayd tayyorlash. **7. Turistik korxonalarda aktivlarning tarkibini va ularni boshqarishni o'rganish.** Bajarish tartibi: Aktivlar turlari haqida o'rganish. Turistik korxonalarda qanday aktivlar mavjud va ularni qanday boshqarish kerakligini tahlil qilish. Turistik korxonalarda aktivlarni boshqarishning samaradorligini o'rganib, hisobot yozish va taqdimot tayyorlash. **8. Aylanma mablag'larni moliyalashtirish jarayonini boshqarish tizimini o'rganish.** Bajarish tartibi: Aylanma mablag'larni qanday boshqarish va moliyalashtirish usullari mavjudligini aniqlash. Aylanma mablag'larni boshqarishda yuzaga keladigan muammolarni va ularni hal qilish usullarini o'rganish. Aylanma mablag'larni boshqarishning ahamiyatini va amaliyotni tahlil qilib hisobot yozish va slayd tayyorlash. **9. Turistik firmalarda pul oqimlarini samarali boshqarish usullarini o'rganish.** Bajarish tartibi: Turistik firmalar pul oqimlarini qanday boshqarilishini o'rganish. Pul oqimlarini boshqarishda yuzaga keladigan muammolarni va yechimlarni tahlil qilish. Turistik firmalar uchun pul oqimlarini boshqarish usullari va samaradorligi haqida hisobot yozish va prezentatsiya tayyorlash.

	10. Turistik firmalarning marketing strategiyalarini va moliyalashtirish rejalari tarkibini tahlil qilish. Bajarish tartibi: Marketing strategiyasini o'rganing: Turistik firmalar marketingini qanday tashkil etilishini o'rganish. Turistik firmalarda moliyaviy strategiyalar va rejalashtirish jarayonlarini o'rganish. Turistik firma uchun marketing va moliyaviy reja tuzish va prezentatsiya tayyorlash. **11. Mehmonxona biznesida moliyaviy rejalar tuzish usullarini o'rganish.** Bajarish tartibi: Mehmonxona biznesi uchun moliyaviy rejalar qanday tuzilishini o'rganish. Mehmonxona biznesida qanday moliyaviy prognozlar va rejalashtirishlar qo'llanilishini aniqlash. Mehmonxona uchun moliyaviy biznes reja ishlab chiqish, daromadlar va xarajatlarni hisobga olish va taqdimot tayyorlash. **12. Turizm industriyasidagi menejmentning rivojlanish bosqichlarini o'rganish.** Bajarish tartibi: Turizmda menejment tizimi qanday bosqichlarni o'z ichiga olishini aniqlash. Turizm sanoatidagi menejmentning qanday rivojlanganini va uni boshqarishda qanday o'zgarishlar bo'lganini o'rganish va slayd tayyorlash. **13. Turizmda boshlang'ich moliyaviy hisob-kitob tushunchalarini tahlil qilish.** Bajarish tartibi: Turizmdagi moliyaviy hisobotlar, soliqlar va boshqa hisob-kitoblar haqida tushuncha hosil qilish. Turizm korxonalarida moliyaviy hisob-kitoblarning qanday amalga oshirilishini misollar bilan ko'rsatish. Turizm sohasidagi moliyaviy hisob-kitob jarayonlari va muammolari mavzusida maqola yozish. **14. Moliyaviy menejmentning turizm va mehmondo'stlikda qanday ishlashini o'rganish** Bajarish tartibi: Turizm va mehmondo'stlik sohasidagi moliyaviy boshqaruvning umumiy tushunchalarini ko'rib chiqish. Turizm va mehmondo'stlik korxonalaridagi moliyaviy boshqaruvning real misollarini o'rganish. Moliyaviy menejmentning ahamiyati va o'ziga xos xususiyatlarini bayon qilish va yozma hisobot topshirish. Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular kafedra tomonidan tayyorlangan uslubiy ko'rsatma asosida bajariladi.
3	**IV. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Ushbu o'quv dasturini muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilar quyidagi bilim, ko'nikma va munosabatlarga ega bo'ladilar: - Mehmonxona va xizmat ko'rsatish sohalarida asosiy moliyaviy tamoyillarni, hisobotlarni va pulning vaqt qiymatini tushunish hamda amaliyotda qo'llashni o'rganadi; - Moliyalashtirish manbalarini, ularning xarajatlari va mablag'jalb qilish tartiblarini aniqlash va farqlash, byudjet tuzish va bashorat

Сканировано с CamScanner

	qilish, shuningdek, samarali ishchi kapitalni boshqarish usullarini bajarish ko'nikmasi shakllanadi; - Naqd pul oqimi tahlilini, aktivlarni boshqarish bahosini va ovqatlanish xizmatlarida mehnat xarajatlarini nazorat qilishni amalga oshirish, turizm va mehmonxona bizneslarida moliyaviy boshqaruv va xarajatlarni nazorat qilish bo'yicha muammolarni mustaqil hal qilish qobiliyati rivojlanadi.
4	**V. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** • videodarsliklar; • videokonferensiyalar; • taqdimotlar tayyorlash; • tezkor savol-javoblar o'tkazish; • guruh bo'lib ishlash; • mavzularga doir online platformalarda (Moodle, Quizlet) test ishlash; • online guruhlarda loyilalar yaratish; • mantiqiy fikrlash • portfolio yaratish.
5	**VI. Kreditlarni olish uchun talablar:** Joriy darslarda faol va to'liq qatnashish, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifalarni o'z vaqtida bajarish, mustaqil ta'lim topshiriqlarini a'lo darajada bajarish va hisobot topshirish, yakuniy imtihonni muvaffaqiyatli topshirish.
6	**Asosiy adabiyotlar** 1. A. G, Ibragimov, Z.R.Madaminova, M.E.Raxmataliyev. Moliyaviy menejment. -T.: "Barkamol fayz media", 2016, 232 b. 2. B. E. Toshmurodova, S.E. Elmirzayev, N. R. Tursunova. Moliyaviy menejment. Darslik. – Toshkent,2017, 317 b. 3. Shakarov A.B., Xolboyev U.X. "Mikroiqtisodiyot". Darslik. – T.: "Iqtisod-Moliya ", 2020.- 228 b. **Qo'shimcha adabiyotlar** 4. Martin G. Jagels and Michael M. Coltman. Hospitality management accounting. 8th edition. John Wiley & Sons, Inc., Hoboken, New Jersey, 612 p. 5. Safayeva S. R.Restoran biznesi marketingi : o'quv qo'llanma / Safayeva S. R., Xamidov O. X., Tolipova N., Abidova D. I.. - Toshkent : Iqtisodiyot, 2016. 6. Mustafakulov Sh.I., Raximberdiyev O.A., M.SH. Egamberdiyeva M.Sh. "Iqtisodiy atamalarning izohli lug'ati". Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot - matbaa uyi, 2019. - 489 b.

	Axborot manbaalari 7. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi xukumat portali. 8. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 9. www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi sayti. 10. www.e-unwto.org – BMT online kutubxonasi rasmiy sayti. 11. www.uza.uz. – O'zbekiston milliy axborot agentligi rasmiy sayti. 12. www.researchgate.net – Ilmiy tadqiqotlar rasmiy sayti. 13.https://www.scribd.com/document/482321473/2-Moliyaviy-echimlar 14.https://ciu.edu.tr/en/programs/undergraduate-tourism-and-hotel-management 15. https://scholarworks.umass.edu/server/api/core/bitstreams/727dfa16-e2a0-4b78-bfc8-9bbdae53becc/content
7	Samarqand davlat chet tillar instituti tomonidan ishlab chiqilgan va institut Kengashining 2025-yil "____" _____ dagi "____"-sonli bayoni bilan tasdiqlangan.
8	**Fan/modul uchun mas'ullar:** **B. A. O'lmasova** - SamDCHTI, "Tarjima nazariyasi va amaliyoti" kafedrasi o'qituvchisi.
9	**Taqrizchilar:** **Z.I. Saliyeva**- SamDCHTI, "Tarjima nazariyasi va amaliyoti" kafedrasi professori, f.fn. **A. Odilov** – "Ipak Yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti "Turizm menejmenti" kafedrasi mudiri, PhD.

Сканировано с CamScanner